

RUS TILI DARSLARINI INNOVATSION METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Xudoyorova Yulduz

Rus filologiyasi (uzga tillarda rus tili) 2-bosqich talabasi

Sadikova Suriya Saidovna

O'zbekiston Findlandiya Pedagogika instituti ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada umumiyoq o'rta ta'limga muktabalarida rus tili fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida so'z boradi. Shuningdek ayrim interfaol metodlarni tahlili ham keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: rus tili, dars, interfaol ta'limga, interfaol metod, B-B-B chizmasi, Klaster, Aqliy hujum.

Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilgan talablardan biri ularning ta'limga jarayoniga tadbiq etilgan, dunyo tajribasidan o'tgan va samara bergen metodlarni yaxshi bilishi va ularni amalda qo'lay olishidir.

Buning uchun o'qituvchi doimiy ravishda izlanishi, o'rganishi va o'rganganlarini tajribada sinab ko'rish, o'zi ham ushbu metodlarga ijodiy yondashib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib borishi zarur.

O'quv jarayonini tashkil etishda ko'plab ta'limiylar metodlardan foydalanib kelinmoqda, ular orasida interfaol ta'limga uning asosini tashkil etuvchi interfaol metodlar ayniqsa samarali sanaladi. Quyida rus tili fanini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol metodlarning ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz.

Interfaol va interaktiv so'zlar bir xil ma'noda bo'lib, interaktiv so'zi inglizcha "inter" - "birgalikdagi" va "act" - "harakatlanish" so'zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o'qituvchi) bilan bo'lish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv ta'limga - avvalo dialogli ta'limga bo'lib uning davomida o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va kompyuter o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol ta'limga asosini yuqorida aytilganidek interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta'limga interfaol metodlari o'quvchilaming ulkan ta'limiylar qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: ta'limga oluvchilar guruhining aqliy kuchi



uning a'zolari kuchi yig'indisidan ko'proq (ya'ni guruh natijasi individual natijalar yig'indisidan doimo ortiq).

Interfaol metodlarni tasnifi

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Blits-so'rov.	Insert chizmasi. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Toifalash jadvali. Nima uchun? chizmasi. "Qan.day?" diagrammasi. Venn diagrammasi. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari ushbu metodlardan umumiy o'rta ta'lif tizimida o'qitiladigan deyarli barcha fanlarni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lib, agar ushbu metodlar to'g'ri qo'llansa albatta yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun o'qutuvchining o'zi yuqoridagi metodlarni qo'llash haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim. Erkin yozish, Klaster, Aqliy hujum, B-B-B chizmasi, Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi, Blits-so'rov kabi metodlar o'quvchilarini tez o'ziga jalb qiladi, ularning darsdagi faolligini oshiradi. Rus tilida darslarida ushbu metodlardan o'quvchilarning yoshiga moslagan holda dastlab sodda shaklda keyinroq murakkab shaklda foydalanish kerak. Boshlang'ich sinflarda ham yuqori sinflarda ham ushbu metodlarni qo'llash orqali tashkil etilgan darslar samarali bo'ladi.

Yangi materialni anglash metodlari o'quvchilarini fanni o'zlashtirishda o'zaro hamkorlik, bilmagan, tushunmagan narsalarini ustozidan, do'stlaridan so'rab o'rganish va o'zgalarga o'rgatishga qaratilgan metodlardir. Ushbu metodlar nafaqat aqliy shuningdek tarbiyaviy ahamiyati ham samarali sanaladi ya'ni ushbu metodlar, o'quvchilar o'rtasida do'stlik, halollik, mexr-oqibat kabi tuyg'ularni shakllantiradi. O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar o'quvchilarini yangi o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini aniqlab beruvchi metodlardir. Ularni qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'rgangan bilimlarini taqqoslay olish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

O'quv jarayonida ushbu metodlarni darsning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, loyihalashtirib qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:



- * o‘rganuvchilarning o‘qishga qiziqishlari va motivatsiyasi kuchayadi;
- * o‘rganuvchilarning darsda zerikishi va charchashining oldi olinadi;
- * o‘rganuvchida ijodiy ishlash ko‘nikmalarini va faol fikr rivojlanadi;
- * mavzu bo‘yicha yangi assotsiativ fikr va tasavvurni erkin va ochiq jalg qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda til o‘rganish o‘quvchilar uchun murakkab jarayon sanaladi. O‘quvchilar xorijiy tillarni o‘zlashtirishda doimo qiyinchiliklarga duch keladilar. Biz yuqorida sanagan interfaol metodlar esa anashu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi va o‘quvchilarni xorijiy tillar, xususan rus tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish(uslubiy qo‘llanma). Toshkent - 2013
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/interfaol-metodlar-o-quvchilar-kreativliginioshirishning-muhim-omili>
3. www.ziyonet.uz

